



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2022-yil. 8-son.

# TIL VA ADABIYOT

## TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

# ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ

## LANGUAGE AND LITERATURE

### TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

### Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV  
Dilshod KENJAYEV  
Nizomiddin MAHMUDOV  
Yorqinjon ODILOV  
Nasirullo MIRKURBANOV  
Jabbor ESHONQULOV  
Valijon QODIROV  
Baxtiyor DANIYAROV  
Abdurahim NOSIROV  
Tolib ENAZAROV  
To'liqin SAYDALIYEV  
Ravshan JOMONOV  
Zulxumor MIRZAYEVA  
Qozoqboy YO'LDOSHEV  
Tajixon SABITOVA  
Salima JUMAYEVA  
Nilufar NAMOZOVA  
Qayum BAYMIROV  
Lutfullo JO'RAYEV  
(bosh muharrir o'rinsbosari)

### Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

### Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

### Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA  
Nigora URALOVA  
Yuliya MUSURMANOVA

### Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri  
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,  
(71) 233-03-67.  
e-mail: til\_adabiyot@umail.uz  
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jumalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2022.28.08. da topshirildi. Ofset ushida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6.0. «Arial» garniturasida. 10, 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma \_\_\_ Adadi 1500 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

### MUNDARIJA

#### DOLZARB MAVZU

**Nigora Uralova.** Akademik Naim Karimov: Sovet davrida yozilgan yolg'on tarix haqiqatlari juda achchiq...  
**Xadicha Muhitdinova.** O'quvchilarning o'zbek tilidan bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari ..... 9

#### TILSHUNOSLIK

**Nizomiddin Mahmudov.** Iboralar va ularning ma'no tarkibi tavsifi ..... 14  
**Malika Dautova.** Nominative features of modern english neologisms ..... 18

#### ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

**Nasima Qodirova.** Adabiyot darslarida ijobiy muhit yaratish texnologiyalari ..... 20  
**Sadoqat Pirimqulova.** Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda o'yin mashqlarining roli ..... 22

#### TAHLIL

**Qobiljon Valiyev.** Ingliz tili darslarida akademik litsey o'quvchilari nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari ..... 24  
**Nilufar Cho'liyeva.** Nazar Eshonqul qissalarida ramz va uning talqini ..... 26  
**Nodira Yangiboyeva.** "Kuzda bahor havosi" hikoyasining ijodiy biografiyasi ..... 27  
**Salima Jumayeva.** "Iztiror" dostonida ishq va sog'inch falsafasi ..... 29

#### TADQIQOT

**Yorqinjon Odilov.** Iqbol Mirzo she'rlari tiliga lingvopoetik chizgilar ..... 31  
**Mo'min Turdibekov.** Ustrushan toponimining kelib chiqish tarixi ..... 33  
**Minovvarxon Hojiyeva.** Terminologik kompetensiyani shakllantirishda terminologik lug'atlarning o'rni ..... 35  
**Mavluda Achilova.** Pedagogik-psixologik tadqiqotlarda o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish muammosining o'rganilishi ..... 36

#### KICHIK TADQIQOT

**Aziza Mo'minova, Munavvar Amonova.** Reklama matnlarida badiiy ifoda ..... 39  
**Akbar Ruziyev.** Xususiy diskurslarning lingvistik xususiyatlari ..... 41  
**Gulzoda Soatova.** Adabiy tanqidiy maqolalarda badiiy matn talqini ..... 43  
**Ilhom Botirov.** Yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni shakllantirish ..... 45  
**Ma'rifat Ismailova.** Strategik kompetensiya va kommunikativ strategiyalarning chet til o'qitishdagi ahamiyati ..... 47  
**Yusufjon Nabijanov.** Edrawmax - grafik organayzerni hosil qiluvchi dasturiy ta'minot ..... 48  
**Zebo Umarova.** Ingliz tilida turizmga oid terminlarning ayrim leksik-semantik xususiyatlari ..... 51  
**Shahnozaxon Xalikova.** Muloqot vaziyatida yosh va jins xususiyatlari ..... 53  
**Fazliddin Badriyev, Olim Eshniyozov.** Yangi O'zbekiston o'qituvchisi ..... 55

#### МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ

**Толиб Кельдиев.** Сложные случаи орфографии ..... 57

#### ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

**Барно Баратова, Елена Шевчук.** Изучение синонимии слов как средства художественной выразительности ..... 60

#### ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

**Татьяна Половинкина.** Художественное воплощение отдельных восточных этностереотипов в произведении С.Афлатуни «Ташкентский роман» ..... 64  
**Дмитрий Пулонин.** Полижанровая структура романа О.Громыко «Профессия: ведьма» ..... 66  
**Азиза Гафурова.** Экфрасис в прозе русских классиков ..... 70  
**Диана Шарпаева.** Небесное пространство в лирике Марины Цветаевой ..... 72  
**Севарахон Отахонова.** Своеобразие стиля Льва Толстого ..... 73

#### ПРОБЛЕМЫ. ПОИСКИ. РЕШЕНИЯ

**Шахноза Муракаева.** Проблемы развития устной речевой компетенции при обучении английскому языку в военных аудиториях ..... 75

#### НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

**Гулноза Сабирова.** Проблема формирования иноязычной речевой компетенции школьников ..... 77  
**Дилором Исломова.** О функциональных особенностях топонимического индикатора *курзан* в русском и узбекском языках ..... 80

#### ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

**Айболган Борашева.** Историческая диагностика предшественников перевернутого образования и его динамика в преподавании ..... 83  
**Татьяна Полатова.** Экспериментальное обучение заимствованной лексике на уроках русского языка ..... 85

## ADABIYOT DARSLARIDA IJOBIY MUHIT YARATISH TEXNOLOGIYALARI

Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, dars o'tishda kuzatilgan maqsadlarni amalga oshirishda o'quvchilarni darsga, yangi mavzuga jalb etish o'qituvchidan yuqori pedagogik mahoratni talab etadi. Maktab ta'limida dars soatlarining 45 daqiqadan, tanaffuslarning 5 daqiqadan iboratligiga sabab o'quvchi bir fanga doir darsdan boshqa fanga doir darsga o'tganda uni, albatta, dars va fan muhitiga moslash kerak bo'ladi. Aks holda o'quvchining xayoli oldin o'tilgan dars taassuroti va vazifalari bilan band bo'lib, yangi darsga diqqat qilmaydi, fikri tarqoq bo'ladi. Bu esa, albatta, dars samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyot darslarida o'qituvchi darsning 4–5 daqiqasini ana shu maqsadga ajratib, o'quvchilarni mavzuga moslashi, bunda o'tiladigan mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda, turli interfaol metodlardan foydalanishi dars samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, she'riyatga doir mavzu bo'yicha rejalashtirilgan darsni o'qituvchi quyidagi interfaol metod yordamida boshlashi mumkin. O'quvchilarga qog'ozdan samolyot yasash va uning qanotiga o'zlari yod bilgan, qalblariga yaqin biror she'riy parcha (2 qator) yozish tayinlanadi. Shundan so'ng o'quvchilar doira shaklida saflanadi va hamma o'z samolyotini doira markaziga yo'naltirib uchiradi. Har bir o'quvchi markazga tushgan samolyotdan bittadan oladi. O'quvchilar unda yozilgan she'riy parchani o'qishlari va bu samolyot kimga tegishli ekanligini ichki his-tuyg'ular orqali topishlari kerak bo'ladi. Ishtirokchilarga samolyot egasini taxmin qilib topishlari uchun 3 martagacha imkon beriladi. Bu jarayonda o'quvchilar yozilgan she'riy parcha asosida bir-birlari haqida mulohaza yuritadilar, unda aks etgan shaxs xususiyatlarini inobatga olib, matn egasini aniqlashga harakat qiladilar. Matn egasi topilgach, samolyot unga beriladi va bu ishtirokchi she'riy parchani izohlab xulosa chiqaradi. Bu esa, o'quvchilar o'rtasidagi do'stona munosabatni mustahkamlaydi hamda ularda tanqidiy-mantiqiy fikrlash malakasini rivojlantiradi. Shu tariqa darsda ijobiy muhit yaratiladi. Bundan tashqari, o'quvchilarning intuitiv qobiliyatlari shakllantiriladi. Sinf doshlarining ko'nglini, orzu va o'ylarini anglashga yordam beradi. Ushbu metodni 6–9-sinf o'quvchilari bilan amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Yoki asarlar qahramonlari tahliliga bag'ishlangan 7-sinfda "Ravshan" dostoni qahramonlarining o'ziga xos fazilatlarini, 8-sinfda "Dostonidagi boshqa obrazlar tasviri", 9-sinfda "Dostoning obrazlar tizimi. Farhod shoir

ideali tajassumi sifatida. Komillik yo'lga kirgan inson manzillari tasviri", "Doston qahramonlaridagi ma'naviy xususiyatlar" kabi dars soatlari o'tiladi. Bu kabi qahramonlar tahliliga bag'ishlangan darslarni quyidagi "Meni tushun" interfaol metodi asosida o'tish o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga yordam beradi.

O'qituvchi sinfni o'quvchi soniga qarab 2 yoki 3 guruhga bo'ladi. O'quvchilar o'rtada 3 qator bo'lib saflanadilar. Guruhlarning qatordagi oxirgi a'zolariga o'qituvchi tomonidan biror qahramonga tegishli ta'rif, parcha yozilgan matn ko'rsatiladi. Masalan, 7-sinf o'quvchilari, "Ravshan" dostoni qahramonlarining o'ziga xos fazilatlarini mavzusi misolida olsak, ushbu parchadan foydalanishi mumkin: "U Go'ro'g'lining tarbiyasini olgan dongdor polvon. Zulxumor mayna orqali yo'llagan maktubni olgach G'irotda uch oylik yo'lni yigirma kunda bosib o'tadi. Jangda u yo'lbarsday kelib turibdi: ostida G'irko'k oti, sherday haybati, qaynab g'ayrati, ko'zi yoshga to'lib, ot qo'yayin deb turibdi." O'quvchi ta'rifni o'qiydi va yodida qolganlari asosida o'zidan oldindagi sherigiga aytadi, u ham eslab qolgani asosida yonidagi sherigiga yetkazadi. Shu tariqa ma'lumot eng so'nggi guruh a'zosigacha yetib keladi va u ta'riflangan qahramon nomini doskaga yozadi. 3 ta guruh a'zosiga ham ma'lumot xavfsizligi uchun bir vaqtda yozishga ruxsat etiladi.

O'qituvchi qahramon ta'rifi yozilgan parchani barcha guruhlar uchun bir xil yoki turlicha tanlashi mumkin. Ushbu interfaol metod o'quvchilarning diqqatini jamlash, xotirasini mustahkamlash, og'zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ta'lim oluvchilarni faollashtiradi va fikrini erkin bayon qilishga o'rgatadi. O'quvchilarning tasavvur olami kengayishida, jamoaviy hamkorlikni shakllantirishda ham bu metodning ahamiyati katta.

9-sinf adabiyot darslarining to'qqiz soati Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonini o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu darslarning xulosaviy "Nazariy ma'lumot: komil inson" deb nomlangan soatini "Charxpalak" interfaol metodi bilan boshlash o'quvchilarning o'tgan darslardagi bilim va ko'nikmalarini umumlashtirishga, yangi nazariy ma'lumotlarni oson va samarali o'zlashtirishlariga yordam beradi.

Yuqoridagi jadvalda o'quvchilar tegishli belgini qo'yib, jadvalni to'ldiradilar. Bu jarayonda yangi mavzuga ham ruhan tayyorlanib boradilar. O'qituvchi dars mavzusi va maqsadidan kelib chiqib, boshqa darslarda ham ushbu texnologiyadan foydalanishi mumkin.

“Charxpalak” texnologiyasi				
	Fazilat va sifatlar	Farhod	Shirin	Shopur
1.	Favqulodda iste’dod, tug‘ma qobiliyat egasi	+		
2.	Ochko‘z			+
3.	Harimi iffat ichra shoh ul ermish		+	
4.	O‘qub o‘tmak, uqub o‘tmak shiori	+		
5.	Shohligidan g‘ururlanuvchi, kibrli			+
6.	Ko‘ngli pok-u, ham ko‘zi pok, Tili pok-u, so‘zi pok-u, o‘zi pok	+		
7.	Sipehri ismat uzra moh ul ermish		+	
8.	Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm	+		

Adabiyot darslarida faol qo‘llanadigan “Qo‘shningni top” metodi ham o‘quvchilarning diqqatini jamlash va mavzuga yo‘naltirishda muhim ahamiyatga ega. Bu ham jadval ko‘rinishida bo‘lib, ma‘lum bir mavzuga oid

ma‘lumotlar chalkashtirib beriladi. O‘quvchi mantiqan o‘ylab, birinchi ustundagi ma‘lumotlarga mos javoblarni ikkinchi ustundan qidirib topadi va strelka yordamida belgilaydi.

T/r	Savollar	Javolar
1	Muqimiyning “Tanobchilar” satirasida qanday voqea tasvirlanadi?	Hakimjon, “Tanobchilar”
2	“Tanobchilar” satirasidagi amaldorlar kimlar?	Erhubbi
3	Ushbu so‘zlar qaysi qahramonga tegishli: “Derki: Ko‘zunga hali kal jojaman, Maxdumi a‘zamlilik o‘zim xojaman. Ham Erhubbi bo‘ladur tag‘o, Ammamizning erlaridur Nuratov”.	Nurat
4	Ushbu so‘zlar qaysi qahramonga tegishli: “O‘t qo‘yubon kuyduradurg‘on o‘zim, Hokiming-u o‘ldiradurg‘on o‘zim. Xoh tanobingni duchandon qilay, Xoh karam birla boshingni silay”.	Toza, ulug‘, asl
5	Sulton Ali tog‘asining ismini kim deydi?	Xonavayron, xarob
6	Sulton Ali ammasining eri haqida nima deydi?	Sulton Ali, “Tanobchilar”
7	“El tamizidin hazar et, alamon” misrasidagi “tam iz” so‘zining ma‘nosini toping.	Sulton Alixo‘ja va Hakimjon
8	“El tamizidin hazar et, alamon” misrasidagi “alamon” so‘zining ma‘nosini toping.	Hiylakor amaldorlar tomonidan bechora dehqonlarning talanishi tasvirlanadi

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarni dars jarayonlariga faol jalb etish, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun darsning kirish qismi nihoyatda ahamiyatli. Darsning ushbu qismini samarali tashkil etish o‘qituvchi va o‘quv-

chilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirish, o‘quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishida ko‘maklashadi.